

## MEN KIM? - SOHIBQIRON AMIR TEMUR SIYOMOSI VA TARIXIY MEROsi

Alijonov Bahtiyor

Farg'onan davlat universiteti Harbiy talim fakulteti 3-kurs kamandiri zaxiradagi mayor

Ismoilov Farrux

Jo'rayev Ahmadjon

Farg'onan davlat universiteti Harbiy talim fakulteti 2-kurs 23\_120guruh kursantlari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temurning shaxsiyati, davlat boshqaruvi, harbiy-ma'muriy siyosati, ilm-fanga va madaniyatga qo'shgan hissasi haqida so'z yuritiladi. Sohibqiron siyomosi tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi hamda uning o'zbek xalqining milliy ongida tutgan o'rni ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, Sohibqiron, tarix, adolat, davlat boshqaruvi, ilm-fan, Temur tuzuklari.

### KIRISH

Buyuk tarixiy siymolar orasida o'zining jasorati, zakovati va bunyodkorlik faoliyati bilan ajralib turadigan shaxs bu — Sohibqiron Amir Temurdir. "Men kim?" degan falsafiy savolga javoban, o'z tarixini anglash, milliy qahramonlar merosini o'rganish har bir yosh avlodning burchidir. Amir Temur siyomosi o'zbek xalqi tarixida chuqur iz qoldirgan bo'lib, uning hayoti va faoliyatini o'rganish orqali biz milliy o'zlikni anglaymiz.

Temurning kelib chiqishi va tarbiyasi

Amir Temur 1336-yil 9-aprelda Kesh (hozirgi Shahrisabz) shahri yaqinidagi Ho'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilgan. U barlos qabilasiga mansub bo'lib, yoshligidan harbiy ishlar, ot chopish, qilichbozlik va siyosiy hayotga qiziqqan. Temurning aqliy salohiyati va harbiy iste'dodi erta namoyon bo'lgan. U zamonasining siyosiy notinchliklariga qaramay, o'z irodasi bilan davlat arbobi sifatida shakllandi.

Harbiy dahosi va davlat boshqaruvi

Temur 1370-yilda Movarounnahr taxtiga chiqqach, markazlashgan kuchli davlat asoslarni yaratdi. U o'z harbiy yurishlari orqali katta hududlarni — Eron, Hindiston, Iroq, Suriya, Kavkaz, Osiyoning katta qismini zabt etdi. Temur harbiy strategiya va taktikada noyob yondashuvlarga ega bo'lib, har bir jangni sinchiklab rejalashtirgan. Uning asosiy shiori "Kuch — adolatda" bo'lgan. U davlatni qat'iy qonunlar, nizam-intizom bilan boshqargan.

Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat

Amir Temur nafaqat sarkarda, balki buyuk bunyodkor edi. Uning davrida Samarqand, Buxoro, Hirot, Toshkent kabi shaharlar rivojlandi. Samarqand Temur sultanatining poytaxtiga aylanishi bilan ilm-fan, madaniyat va me'morchilik markazi bo'ldi. Temur o'z davrining eng yaxshi olimlarini, san'atkorlarini va ustalarini bu yerga to'plagan. U tomonidan qurilgan Go'ri Amir maqbarasi, Bibixonim masjidi, Shohi Zinda majmuasi bu davr yodgorliklaridir.

Amir Temurning xalq ongidagi o'mi

Amir Temur siyomosi o'zbek xalqining milliy ongida faxr va iftixor manbai sifatida yashaydi. Uning adolatga, tartib-intizomga asoslangan siyosati zamonaviy davlat boshqaruvi uchun ibrat bo'la oladi. Temurning "Temur tuzuklari" asari bugungi kun uchun ham muhim

siyosiy-falsafiy merosdir. Mustaqillik yillarida Amir Temur nomining qayta tiklanishi, uning merosi asosida yurtimizda tarixiy xotira va g'urur shakllanmoqda.

### Tarixiy manbalar va zamonaviy qarashlar

Amir Temur haqida ko'plab tarixiy manbalar mayjud. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari Temur hayotining eng asosiy yozma manbalaridan biridir. Zamonaviy tarixchilar ham Temur siy whole ilmiy yondashib, uning harbiy-siyosiy faoliyatini chuqur tahlil etmoqdalar. Temur haqida O'zbekiston, Turkiya, Eron va Yevropa tarixchilari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ushbu siy whole jahon tarixidagi o'rnni yanada mustahkamlab bermoqda.

### XULOSA

Sohibqiron Amir Temur shaxsini o'rganish nafaqat tarixiy haqiqatni anglash, balki milliy ong va iftixorni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. "Men kim?" degan savolga javoban, Temur merosidan saboq olib, o'zligimizni anglash — yosh avlodning tarixiy javobgarligidir.